

**AN'ANAVIY XALQ QISSALARINING AHOLI DINIY TAFAKKURIDA
TUTGAN O'RNI
(SHOH HAKIM XOLIS IJODI MISOLIDA)**

Sobirova Maxzuna Ibrohimjon qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqola toshkentlik shoir Shoh Hakim Xolisning badiiy merosi va uning qalamiga mansub qissalar tahliliga bag'ishlangan. Unda asosiy e'tibor qissalarning xalq badiiy va diniy tafakkurini o'stirishdagi o'rniga qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Shoh Hakim Xolis, xalq qissalari, diniy tafakkur, Ibratnoma, Imom Hasan va Husayn, Shoh Jarir.*

ABSTRACT

The article is devoted to the analysis of the artistic heritage of the Tashkent poet Shah Hakim Kholis and his stories. It focuses on the role of stories in the development of artistic and religious thinking of the people.

Keywords: *Shah Hakim Khalis, folk tales, religious thinking, Ibratnoma, Imam Hasan and Hussein, Shah Jarir.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена анализу творческого наследия ташкентского поэта Шаха Хакима Холиса и его рассказов. Особое внимание уделяется роли рассказов в развитии художественного и религиозного мышления народа.

Ключевые слова: *Шах Хаким Халис, народные сказки, религиозное мышление, Ибратнома, Имам Хасан и Хусейн, Шах Джарир.*

KIRISH

Tarix va badiiy adabiyot bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir birini to'ldirib turishi hammaga ma'lum. Fikrimizni dalili sifatida shuni aytish mumkinki, tarix voqelikning qanday bo'lib o'tganini so'zlasa, adabiyot esa qay tarzda bo'lgani xususida yoritadi. Tarixiy voqeani xalq onggiga singdirishning samarali vositasi esa unga badiiylik olib kirishdir. Bu jarayonda xalq orasida keng tarqalgan naql va rivoyatlarning qayta ishlangan va o'zida diniy-didaktik ruhni aks ettirgan qissalar muhim ahamiyat kasb etdi. Bu vazifa mahoratli shoir-qissaxonlar tomonidan amalga oshirildi. Shunday mas'uliyatli vazifani maromiga yetkazib amalga oshirgan shoirlardan biri XIX asrda yashab ijod qilgan toshkentlik Shoh Hakim Xolisdir¹.

¹ Nosirov A. Toshkent olimlari va shoirlari. O'zRFA SHI fondi. Qo'lyozma. Inv. № 13408. – 128-varaq

Shoh Hakim Xolis XIX asrning 40-yillarida yashagan va asosan diniy-didaktik ruhdagi qissalar va muxammaslar yozgan shoirlardan biridir. Xolis-shoirning taxallusi. Asl ismi Shoh Hakimdir. Shoir hayotiga oid ma'lumotlar asosan o'zining asarlari orqaligina yetib kelgan. Shunga qaramay qissalari xalq orasida mashhur. Adib hayoti va ijodi tog'risida ayrim ma'lumotlar Q.Toxirov, I.Salohiddinov, G.Ahrorova, U.Karimov kabi adabiyotshunoslarning ilmiy tadqiqotlarda uchratish mumkin. Shoir asarlarining aholiga bu qadar tez singib ketishi va mashhur bo'lishiga sabab qissalarining ko'pchiligi diniy mavzuda ekanligi va voqealar boshqa ijodkorlarga nisbatan kengroq va qiziqarliroq yoritilganidadir. Shoir qissalari orqali el turmush sharoitini yaxshilash, hukmdorlarni adolatga chaqirish, zulm va zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik, odamlar orasida mehr-muhabbat, g'amxo'rlik fazilatlarini targ'ib qilish, johillik, molparastlik, dinsizlik yo'lga kirgan shaxslarni diniy nasixatlar va avval yashab o'tgan ilmi kishilar hayotini misol tariqasida keltirish orqali to'g'ri yo'lga qaytarish kabi maqsadlarni ko'zlagan. Bu muloxazalarga Qu'roni Karim va Hadisi Shariflardan misollar keltirish esa uning tasiri va qiymatini oshirgan. Shunday asarlardan biri "Ibratnoma" qissasidir. Asar o'z davrida xalq orasida juda mashhur bo'lgan. Bugungi kunda asarning turli xil qo'lyozma nusxalari O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar bo'limida 12447 va 13055/I inventer raqamlari ostida, muassasaning Hamid Sulaymonov fondida esa kirill alifbosiga o'girilgan nusxasi saqlanmoqda. Filologiya fanlari nomzodi F.R. Ravshanov tadqiqotiga ko'ra, bir kuni shoir qo'lga "Dahmayi Shohon" nomli fors-tojik tilida yozilgan asar tushib qoladi. Uni o'qib ta'sirlanganidan buni boshqalarga ham baham korishni xohlaydi va oddiy xalqqa tushunarli bo'lishi uchun uni turkiyga tarjima qiladi. Asarni nazmda yozib, uni "Ibratnoma" deb nomlaydi. Qissaning bosh qahramoni Iskandar Zulqarnayndir. Shoir bu shaxs haqida yozishiga sabab Qur'oni Karimning 18-surasi bo'lgan "Kahf" surasining 83-89-oyatlarida Iskandar Zulqarnaynning nomi adolat va taqvoda benazir bo'lgan shoh deya tasvirlanishi bo'lgan². Chindan ham Iskandar Zulqarnayn obrazi misolida insonlar onggiga yaxshilik qilish, ezgulik, adolat, xalqparvarlik fazilatlarini singdirish, boylikka ruju qo'ymaslik, oxiratni o'ylab ish tutish kabi fazilatlarini targ'ib qilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yana bir tarixiy asar "Imomlar qissasi" ham ahamiyati jihatidan juda qimmatlidir. Qissada bosh qahramonlar Hazrati Alining farzandlari Hazrati Hasan va Husayndir. Qissaning avvalida Payg'ambarimiz (s.a.v) va to'rt xulfoyi roshidunlar

² Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent, 2019. – B.194

haqida soʻz boradi. Shundan soʻng Fotima onamizga xos hislatlar bayon qilinadi. Soʻng Imom Hasan va ukasi Hazrati Husayn haqida bayon etilib, Imom Husayn bilan sodir boʻlgan Karbalo fojiasi, ummaviylar oʻrtasidagi ziddiyatlar juda qiziqarli tarzda ochib berilgan. Asarda bir necha toʻqima obrazlar ham uchraydi. Bu esa qissaning badiiyligini orttirib, xalq ongiga osonlik bilan singishiga va tushunarli boʻlishiga xizmat qilgan.

Shoh Hakim Xolis ijodida oʻzgacha oʻrin egallagan yana bir asar bor. U Xolisning pand-u nasixatga yoʻgʻrilgan qissalaridan biroz farq qiladi. Bu asar “Shoh Jarir qissasi” deb nomlanadi³. Asar mazmun-mohiyatiga koʻra jangnoma asarlar sirasiga kiradi. Asar bosh qahramoni Shoh Jarir Xolis qissasida Paygʻambarimiz (s.a.v.)ning nabirasi yaʼni Hazrati Usmon va Zaynab onamizning oʻgʻli sifatida tasvirlanadi.

*Chu Gulsum qizlari Usmonda oʻldi,
Bu qizni ham ani oʻrniga berdi.
Alardin boʻldi bir farzand paydo,
Erdi mardonalik andin huvaydo.
Otini qoʻydilar Muhammad Jarir deb
Bahodurligʻda erdi benazir deb...⁴*

Boshqa tarixiy manbalarda Shoh Jarir Muhammad Halil, Muhammad ibn Abdujalil, Muhammad ibn Shoh Jalil, Shoh Jalil kabi nomlar bilan tilga olinadi va u paygʻambarzoda emas balki koʻpgina xalqlarni musulmon boʻlishiga turtki boʻlgan ulugʻ sarkarda sifatida tilga olinadi⁵.

Asarda Shoh Jarir juda oqil va uzoqni koʻra biladigan sarkarda sifatida tasvirlangan. Shuningdek u dushmanlariga nisbatan shavqatsiz bir shoh deya tarif berilgan. Xususan, Karbalo fojiasidan soʻng Kufaga borib Hazrati Husayn uchun qasos oladi. Kufadan soʻng Bagʻdodga, undan oʻtib Balxga yetib keladi.

*Qilib lashkarini tayyor bu gʻam birla turib erdi,
Yetishti Shoh deb Bagʻdodeliga bu xabar keldi.
Suyunganidan oʻshal Saʻd ibn Talha oʻrnidan turdi,
Olib lashkarini peshvoz alarni oldiga yurdi.
Bu soʻzni nazmini Xolis durafshon ayladi goʻyo.*

Har bir hudud aholisi va hokimi Shoh Jarir kelayotganini eshitib tahlikaga tushib qolishadi. Bu ham boʻlsa Shoh Jarirning naqadar buyuk sarkarda boʻlganidan darak

³ Nosirov A. Toshkent olimlari va shoirlari. OʻzRFA ShI fondi. Qoʻlyozma. Inv.№ 13408. – 129-varaq

⁴ Shoh Hakim Xolis. Shoh Jarir qissasi. OʻzRFA ShI fondi. Qoʻlyozma. Inv.№ 5660/VII. – 93-varaq

⁵ Абдулахатов Н., А.Рахмонов, М.Ахмедов. Бувайда зиёратгоҳлари (“Биби Убайда ёхуд Сафед Булон қиссаси” асосида). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 141.

beradi. Asarda Shoh Jarir Turkiston hududiga ham yurush olib borganligi va Samarqanda, Axsi, Koson shahrlarida qilgan qirg'in ishlari shu holida bayon etilgan. Shoh Jarir qaysi hududni egallamasin o'sha hudud aholisiga islom dinining tub mohiyati, uning naqadar ulug'vor va yaxshilikka yetaklovchi haq din ekanligini tushuntiradi. Islom dini arkonlari va shariat qonun-qoidalarini o'rgatib, unga qat'iy amal qilish zarurligini nazorat qiladi. Bundan kelib chiqadiki, asar asosida islom dinining mohiyati ham anglashiladi va bevosita islom diniga targ'ib ruhi ham seziladi.

Bundan tashqari O'zR FA Sharqshunlik institutidagi 13055 inventer raqami ostida saqlanayotgan jildda Shoh Hakim Xolisning "Qissayi Shoh Jarir", "Risolayi Arvoohnoma", "Qiyomatnoma", "Ibratnoma" kabi qissalarining qo'lyozma nusxalari jamlangan. Shuningdek, 12457/I inventer raqami ostida "Qissayi bin Muhammad", 11113 inventer raqami ostida "Iskandarnoma", 8844/I inventer raqami ostida "Dahmayi Shohon", 6350/VII inventer raqami ostida "Qissayi Muhammad Hanafiy", 8924/II inventer raqami ostida "Me'rojnoma" kabi qissalarining qo'lyozma nusxalari mavjud. Bundan tashqari mazkur fondada adibning "Qissayi Hazrat Ibrohim va Ismoil alayhissalom" qissasining toshbosma nusxasi ham saqlanadi.⁶ "Ibrohim bin Muhammad" qissasining 8 ta toshbosma nusxalari Samarqandda va 1905, 1906, 1910, 1911, 1913, 1914, 1916-yillarda Toshkent shahrida nashr etilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Shoh Hakim Xolis o'zining diniy-didaktik mazmundagi qissalari orqali xalqimiz qalbiga kirib borgan. Bundan tashqari ijodkor ko'plab arab, fors-tojik tillaridagi asarlarni mutolaa qilib, ularni xalqqa ham yetkazish maqsadida turkiy tilga tarjima qilgan yoki o'zi o'qigan asarlar asosida juda mazmunli qissalar yozgan. Shu tufayli unga tarixiy voqealarni bayon qilishda ham zarur o'rinlarda to'qima obrazlarni qo'shish orqali yanada mazmunder va qiziqarli tarzda qissa yoza oladigan shoir sifatida baho beriladi.

REFERENCES

1. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. – Toshkent, 2019. – 483 b.
2. Abdulahatov N., A.Rahmonov, M.Ahmedov. Buvayda ziyoratgohlari ("Bibi Ubayda yoxud Safed Bulon qissasi" asosida). –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 308 b.

⁶ Shoh Hakim Xolis. Qissayi Hazrat Ibrohim va Ismoil alayhissalom. – Toshkent, Zafar Muhammad valadi Shukur Muhammad nashri, inv.610. 910 milodiy, 24 c

-
3. Nosirov A. Toshkent olimlari va shoirlari. O'zRFA ShI fondi. Qo'lyozma. Inv. № 13408. – 128-132-varaqlar.
 4. Shoh Hakim Xolis. Shoh Jarir qissasi. O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondi. Qo'lyozma. Inv. № 5660/VII. – 120 varaq
 5. Ravshanov F.R. Xolis va uning adabiy merosi, avtoreferat. – Toshkent, 1997. – 25 bet